Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2023-YIL — INSONGA E’TIBOR VA SIFATLI TA’LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2023-yil 15-oktabr, № 219 (8562) Yakshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

ELEKTR VA ISSIQLIK TA’MINOTI TIZIMIDAGI MODERNIZATSIYA HAMDA QURILISH ISHLARI BILAN TANISHILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 14-oktabr kuni Toshkent shahridagi yangi infratuzilma inshootlari va kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlari bilan tanishdi.



So‘nggi yillarda poytaxtimiz ham aholi, ham hudud jihatidan o‘smoqda. Muhandislik tarmoqlari quvvati shunga mutanosib tarzda oshirib borilmoqda.

Xususan, Shayxontohur tumanida, “Paxtakor” stadioni yaqinida yangi podstansiya qurildi. Loyiha doirasida “Traktorsoz” podstansiyasidan 19 kilometrdan ziyod kabel tortilib, 2 ta transformator o‘rnatildi. U kelgusi oyda ishga tushiriladi. Buning natijasida poytaxtimiz markazida kafolatlangan 130 megavatt qo‘shimcha elektr energiyasi hosil bo‘ladi. Shahardagi boshqa podstansiyalarga yuklama kamayib, avariyaviy holatlar ehtimoli 60 foizga qisqaradi.

Davlatimiz rahbari shu yerda Toshkent shahri elektr ta’minoti tizimidagi qurilish va modernizatsiya ishlariga oid taqdimot bilan tanishdi. Yana beshta podstansiya qurilayotgani va to‘rttasi yangilanayotgani, ularda jami 850 megavatt qo‘shimcha quvvat yaratilishi qayd etildi.

Mamlakatimizdagi o‘zgarishlar bosh shahrimizda, ayniqsa, yaqqol namoyon. Bugungi kunda Toshkent — ulkan bunyodkorlik, zamonaviy biznes, ilm-fan va madaniyat markaziga aylandi. “Tashkent city”dagi muhtasham binolar shahar ko‘rkiga ko‘rk qo‘shdi. Bu yerdagi Xalqaro kongress markazida ko‘plab forum va anjumanlar bo‘lib o‘tgan. Kelgusida yana qator nufuzli sammitlar o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, shinamlik darajasi yuqori mehmonxonalar, konsert va opera teatri barpo etilmoqda.

Davlatimiz rahbari ulardagi qurilish jarayoni bilan tanishdi. Ushbu majmua yurtimizda san’at rivojini yangi darajaga ko‘tarish, madaniy tadbirlarni yuqori saviyada o‘tkazishga xizmat qilishi qayd etildi.

Shuningdek, Prezident “Tashkent city” markazida qurilishi yakuniy bosqichda bo‘lgan bir qator boshqa inshootlarni ham ko‘zdan kechirdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev “Toshkent issiqlik markazi” korxonasining Shayxontohur tumanidagi 3-sonli issiqlik markazini borib ko‘rdi.

Mazkur majmua 1972-yilda qurilgan. Bu yerdagi 5 ta qozonxona 400 Gkal quvvatga ega. Jami 491 ta ko‘p qavatli uy, 150 dan ortiq ijtimoiy soha muassasalariga issiqlik yetkazib beradi.

O‘tgan qishda havo keskin sovib ketishi oqibatida tabiiy gaz bosimi pasayib, iste’molchilarga issiqlik yetkazish qiyin bo‘lgan edi. Shuning uchun joriy yilda issiqlik markazida muqobil yoqilg‘idan foydalanish imkoni yaratildi. Xususan, mazut xo‘jaligi qurilib, qozonlarning ikkitasi aralash shaklda — gaz va mazutda ishlashga moslashtirildi. Barcha qozonxonalar ta’mirlandi. Shuningdek, gaz bosimini ta’minlash maqsadida inshootga 4,6 kilometr alohida quvur tortildi.

Bu sa’y-harakatlar natijasida kuz-qish mavsumida iste’molchilarni issiqlik bilan uzluksiz ta’minlash imkoni yaratildi. Xususan, tarmoq 30 daraja sovuq haroratgacha barqaror ishlaydi. Bunday paytlarda zaxiralangan mazutdan ishlatiladi. Quvurlar izolyatsiyasi mustahkamlangani uchun issiqlik yo‘qotilishi kamaytirilgan. Natijada aholiga 65 darajadan kam bo‘lmagan issiqlik yetkazib beriladi.

Xuddi shu tartibda 5-sonli issiqlik markazi ham modernizatsiya qilingan.

— Ochig‘i, uzoq yillar davomida bu tizimga e’tibor bo‘lmagan. Issiqlik korxonalari eski resursda, eskicha uslubda ishlab kelgan. Lekin olingan issiqlik sarflangan xarajatga nisbatan o‘zini oqlamadi. Bundan odamlar ham rozi bo‘lmadi, korxonalar ham manfaat topmadi. O‘tgan yilgi sinovdan va imkoniyatlarimizdan kelib chiqib, issiqlik ta’minotini modernizatsiya qilayapmiz. Endi issiqlikni saqlash va tejash choralarini ko‘rish kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shundan so‘ng davlatimiz rahbari Toshkent shahrining Chilonzor tumanida ishga tushirilgan kogeneratsiya inshootini ko‘zdan kechirdi.

Ma’lumki, o‘tgan qishdagi anomal sovuqda issiqlik ta’minotida uzilishlar ro‘y berdi. Chilonzor tumanining Oqtepa va Bog‘zor mahallalari vaziyat murakkab bo‘lgan hududlardan edi. Bu yerda 50 ta ko‘p qavatli uy, 7 ta ijtimoiy muassasa va o‘nlab tadbirkorlik shoxobchalari bor.

Ushbu holatning takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun bu yerda bir vaqtning o‘zida issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqaradigan kogeneratsion qurilmalar ishga tushirildi. Ular soatiga 4,6 MVt elektr energiyasi hamda 29 gigakaloriyadan ortiq issiqlik ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Turkiyaning “Iltekno” kompaniyasi bilan birgalikda amalga oshirilgan loyihaga Germaniyadan gaz-porshenlar hamda “Bosch” qozonlari keltirib o‘rnatildi. Shuningdek, qozonxonadan iste’molchilargacha bo‘lgan barcha issiqlik ta’minoti infratuzilmasi rekonstruksiya qilindi. Issiqlik magistrali almashtirildi, har bir turarjoy binosi va ijtimoiy obyektlarda alohida issiqlik taqsimlash punktlari o‘rnatildi. Jami 13 ming metr uzunlikdagi issiqlik tarmoqlarini yangi, izolyatsiyali quvurlarga almashtirish hisobiga to‘liq yopiq tizimga o‘tkazildi va yo‘qotishlardan himoya qilindi.

Loyihaning yana bir samarali jihati — issiqlik taqsimlash punktlari maxsus datchiklar bilan jihozlangan. Havo sovib yoki isib ketishiga qarab, uy ichidagi harorat mo‘tadil saqlab turiladi.

Majmua ishga tushirilishi natijasida yiliga 5,3 million metr kub tabiiy gaz iqtisod qilinadi. Atmosferaga chiqadigan ifloslantiruvchi moddalar 67 foiz kamayadi, oqova suv tashlamalari esa umuman bo‘lmaydi.

Bog‘zor va Oqtepa mahallalaridagi transformatorlar almashtirildi, elektr uzatish tarmoqlari yangidan tortildi. Bunga qo‘shimcha, ko‘p qavatli uylar tepasiga quyosh panellari o‘rnatilmoqda.

Shu yerda Toshkent shahri va tegishli sohalar mutasaddilari kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik bo‘yicha axborot berdi. Davlatimiz rahbari energetika, kommunal, qurilish va servis kompaniyalari kabi barcha vositalarni safarbar qilib, ta’mirlash ishlarini yakuniga yetkazish, energiya va issiqlik ta’minotini barqaror qilish, bu borada xalq nazoratini yo‘lga qo‘yish zarurligini ta’kidladi.

Davlatimiz rahbari “Yashil makon” loyihasi doirasida kuzgi daraxt ekish mavsumini boshlab berdi. Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi Oqtepa va Bog‘zor mahallalariga tashrifi chog‘ida jamoatchilik bilan birga ko‘chat ekdi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan daraxt ekish, yashil hududlarni ko‘paytirish katta harakatga aylanmoqda. Bu mavsumda 85 million tup ko‘chat o‘tqazilishi mo‘ljallangan. O‘rmon xo‘jaligi agentligi tomonidan har bir mahallaga 200 tadan ko‘chat bepul yetkazib beriladi. Shuningdek, 15-oktyabrdan barcha tuman va mahallalarda ko‘chat yarmarkasi tashkil qilinadi.

Mahalla aholisi bilan suhbatda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik jarayoni haqida so‘z bordi.

— Bugun kelishimizdan maqsad — o‘tgan yilgi saboqdan natija nima bo‘lganini ko‘rish, — dedi davlatimiz rahbari. — Buning uchun kerakli qarorlar qabul qildik, katta mablag‘lar ajratdik. Xorijdan texnologiyalar, mutaxassislar olib keldik. Soha xodimlari qo‘shimcha o‘qitildi, ularning oyliklari oshirildi. Hozir rahbarlarga har bir mahalla, har bir ko‘p qavatli uy, maktab, shifoxonalarga kirib, issiqlikni kafolatlash bo‘yicha yana topshiriqlar berdim. Eng muhimi, bu borada xalq nazoratini yo‘lga qo‘yamiz. Shu bilan birga, energiya tejamkorlik madaniyatini oshirish kerak. Sizga o‘xshagan ko‘pni ko‘rgan insonlar, ziyolilar bunda namuna, davlatga ko‘makchi bo‘lishi zarur.

Jamoatchilik vakillari kuz-qishga tayyorgarlikni, yurtimizdagi o‘zgarishlarni e’tirof etib, o‘z uylari va barcha muassasalarda issiqlikni asrashda jonkuyar bo‘lishlarini ta’kidlashdi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O‘zA muxbirlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

Dunyo nigohi

O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda va MDH makonida yuritayotgan o‘zaro manfaatli tashqi siyosati tufayli davlat rahbarlari o‘rtasida qulay siyosiy muhit va ishonch shakllandi

Shu yilning 13-oktabr kuni Bishkekda MDH Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi sammiti bo‘lib o‘tdi. Davlat rahbarlari mintaqaviy va global kun tartibidagi dolzarb masalalar bo‘yicha “soatlarni to‘g‘rilab olishdi” va dolzarb muammolarni hal etish yo‘llarini muhokama qildilar.

O‘zbekiston Prezidenti sammitdagi nutqida Hamdo‘stlik doirasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish bo‘yicha bir qator dolzarb tashabbuslarni ilgari surdi.

Majlis doirasida Prezident Shavkat Mirziyoyevga do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga qo‘shgan ulkan hissasi uchun tashkilotning oliy mukofoti — MDH Faxriy nishoni topshirildi.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, MDH sammitida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan muhim tashabbus va takliflar xorijiy ekspertlarda ham katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Viktoriya PERSKAYA,
Rossiya hukumati huzuridagi Moliya universitetining Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni o‘rganish instituti direktori:



— Shuni alohida ta’kidlamoqchimanki, bugungi kunda Hamdo‘stlikning zamonaviy iqtisodiy rivojlanishida O‘zbekistonning o‘rni juda muhimdir.

O‘zbekiston MDH tashkil topganidan beri savdo-iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish, transport-kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, teng huquqli va o‘zaro manfaatli asosda iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash tarafdori bo‘lib kelgan.

Hamdo‘stlik doirasida O‘zbekiston tashkilot nizom va tarmoq tuzilmalari faoliyatida faol ishtirok etadi. Xususan, “yo‘l xaritalari”ni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston 24 ta sohaviy hamkorlik organiga qo‘shildi, natijada MDHning 86 ta organidan 65 ta tarmoq tuzilmalari faoliyatida ishtirok etmoqda, ularning maqsadli vazifalari milliy manfaatlarga mos va o‘zbek tomonining qiziqishini tasdiqlaydi.

Qirg‘iziston poytaxtida bo‘lib o‘tgan MDH Davlat rahbarlarining uchrashuvi tomonlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning asosiy natijalarini sarhisob qildi va Hamdo‘stlik doirasidagi ko‘p tomonlama aloqalarning yangi ufqlarini rivojlantirishga qaratildi.

Xususan, Samarqand shahrini 2024-yilda MDHning “Madaniyat poytaxti”, Toshkent shahrini esa “O‘shlar poytaxti”, deb e’lon qilish bo‘yicha qaror loyihalari Qirg‘izistonda bo‘lib o‘tgan sammit yig‘ilishi yakunlari bo‘yicha hujjatda o‘z aksini topdi.

2

Taraddud

SAMARQAND – YANA BIR YIRIK ANJUMAN MEZBONI


Joriy yilning 16 — 20-oktabr kunlari Samarqand shahrida Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh assambleyasining XXV sessiyasi bo‘lib o‘tadi.

Mazkur yirik anjumanda dunyoning 150 dan ortiq mamlakatlaridan sayyohlik sohasi vakillari, xalqaro tashkilotlar, shuningdek, turistik kompaniyalar rahbarlari, tadbirkorlar ishtirok etishi kutilmoqda.

Aytish joizki, mamlakatimizda bunday nufuzli tadbir ilk bor o‘tkazilayotgan bo‘lib, bu O‘zbekiston turizm sohasi rivojida muhim hisoblanadi. Shu bois qadim kentda bo‘lajak muloqotlarga tayyorgarlik qizg‘in.

Samarqand shahrida tadbirning barcha jihatini muvofiqlashtiruvchi qarorgoh tashkil etilgan. Ishtirokchilar, chet ellik mehmonlar hamda mahalliy aholining qulay harakatlanishini ta’minlash choralari ko‘rildi. Ko‘cha hamda xiyobonlar, anjumanlar o‘tkaziladigan Samarqand xalqaro turistik markazi hududi o‘ziga xos tarzda bezatilgan.

2



KINO SAN’ATI TURIZM RIVOJIGA XIZMAT QILADI

Kuni kecha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida turizm va madaniyat maskanlari imkoniyatini to‘liq ishga solish, “Yashil makon” umummilliy loyihasining kuzgi mavsumini tashkil etish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Unda kinematografiya imkoniyatlaridan ham foydalanish zarurligi qayd etildi. Shu xususda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi direktori Firdavs ABDUXOLIQOVning fikrlari bilan qiziqdik.

Biz va jahon

— Firdavs Fridunovich, dastlab turizmni rivojlantirishga milliy kinematografiya tizimi tomonidan qilinayotgan ishlar xususida to‘xtalib o‘tsangiz.

— Bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan kinematografiyani rivojlantirishga har qachongidan ham ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Keyingi yillarda bu o‘zgarishlar samarasi ko‘zga yaqqol tashlanyapti. “O‘zbekfilm” pavilyoni, “Kinochilar uyi”da amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlari, milliy filmlarimizning son va sifat jihatdan yuksalib borayotgani, xorijiy kinofestivallarda erishayotgan yutuqlarimiz, Butunrossiya davlat kinematografiya instituti Toshkent filialining ochilishi, Milliy kino fondi, Milliy kino muzeyining yangi binolari ishga tushirilishi — bularning barchasi haqida uzoq gapirish mumkin.

Ayni damda Kinematografiya agentligi tomonidan O‘zbekistonning turizm salohiyatini ommalashtirish, madaniyat, san’at, turizm va madaniy meros sohalaridagi yangi islohotlar bilan xalqaro hamjamiyatni tanishtirish borasida ham qator ishlar bajarilmoqda.

4

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2023-yil 15-oktabr

O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda va MDH makonida yuritayotgan o‘zaro manfaatli tashqi siyosati tufayli davlat rahbarlari o‘rtasida qulay siyosiy muhit va ishonch shakllandi

1 Shubhasiz, o‘zaro savdo hajmini yanada oshirish, transport va sarmoyaviy sohalardagi hamkorlik, sanoat kooperatsiyasi, elektron tijorat masalalari mazkur sammit kun tartibidan o‘rin oldi.

MDHning ana shu yo‘ldan borishiga asosiy aynan O‘zbekistonning mazkur tashkilotga raisligi davrida qo‘yilganini alohida ta’kidlamoqchiman.

Hikmet Eren,
“EkoAvrasya” Yevroosiyo iqtisodiy aloqalar jamg‘armasi boshqaruvi raisi (Turkiya):



— O‘zbekiston Prezidenti Bishkek shahrida bo‘lib o‘tgan MDH Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisidagi ishtirokini katta qiziqish bilan kuzatdim. Unda Hamdo‘stlik doirasidagi ko‘p qirrali munosabatlarning bugungi holati va istiqbollari yuzasidan fikr almashildi, shuningdek, amaliy hamkorlikning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

O‘zbekiston yetakchisi tomonidan ilgari surilgan MDH doirasida o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirishga qaratilgan tashabbuslarni o‘z vaqtida va dolzarb deb bilaman. Xususan, hozirgi murakkab davrda MDHga a’zo davlatlarning salohiyatli imkoniyatlarini birgalikda baholashni hisobga olgan holda muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish juda muhim. Shu nuqtayi nazardan, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ko‘p tomonlama hamkorlikning yangi uzoq muddatli kun tartibini ishlab chiqish maqsadida MDH mamlakatlarining yetakchi tahlil markazlari va ekspertlarining konferensiyasini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi Hamdo‘stlikka a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlarni birlashtirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Bundan tashqari, O‘zbekiston rahbarining 2012-yildagi MDHning erkin savdo hududi to‘g‘risidagi bitimini qayta ko‘rib chiqish va yangilash to‘g‘risidagi tashabbusining amalga oshirilishi MDH geografiyasida iqtisodiy va sarmoyaviy aloqalarni rivojlantirish, shuningdek, Hamdo‘stlik mamlakatlari o‘rtasidagi savdo aylanmasining o‘sish sur’atlari uchun kuchli rag‘bat bo‘ladi.

Hududlararo hamkorlik savdo-iqtisodiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismi ekanligini inobatga olib, Prezident Shavkat Mirziyoyev MDH makonida hududlararo hamkorlikni faollashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni tayyorlash tashabbusi bilan chiqdi, transport jihatidan o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish, yo‘lovchi va yuk tashishni ko‘paytirish yuzasidan aniq chora-tadbirlarni ko‘rsatib o‘tdi.

O‘zbekiston rahbarining investitsiyalarni rag‘batlantirish va loyihalarni ilgari surish bo‘yicha qo‘shimcha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda MDH mamlakatlarining Sanoat kooperatsiyasi va innovatsion ishlanmalari forumini o‘tkazish tashabbusi ham alohida e’tiborga loyiqdir. Ishonchim komilki, mavjud mexanizmlardan samarali foydalanish, shuningdek, Hamdo‘stlik mamlakatlari o‘rtasidagi tovar ayirboshlash o‘sishini rag‘batlantirishning yuqorida qayd etilgan yangi vositalarini ishga tushirish iqtisodiyotning turli tarmoqlarida o‘zaro manfaatli sheriklik munosabatlarini chuqurlashtirish, ilg‘or innovatsion texnologiyalarni amalga oshirish va MDHga a’zo barcha davlatlarda iqtisodiyotning ko‘plab tarmoqlarida hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Prezidentining tashabbusi bilan 2024-yilda Samarqand shahrida BMT shafeligida Xalqaro iqlim forumi doirasida MDH makonidagi ekologik xavf-xatarlarga bag‘ishlangan maxsus yalpi sessiyaning tashkil etilishi, shubhasiz, kelajakda global iqlim o‘zgarishi oqibatlarining oldini olish bo‘yicha sa’y-harakatlarni mustahkamlashda global platformaga aylanadi.

Muhammad TAL’AT,
Misrning “Al-Jumhuriya” gazetasi bosh muharriri o‘rinbosari:



— Prezident Shavkat Mirziyoyevning Bishkekda bo‘lib o‘tgan MDH sammitida so‘zlagan nutqi Misr siyosiy va jamoat doiralarida katta qiziqish uyg‘otdi.

Darhaqiqat, davlatingiz rahbarining yirik Yevroosiyo makonida ishonch va hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan muhim tashabbuslari diqqatga sazovordir.

O‘zbekiston yetakchisining yangi uzoq muddatli ko‘p tomonlama kun tartibini ishlab chiqish uchun MDH davlatlarining yetakchi tahliliy markazlari va ekspertlari konferensiyasini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifini amalga oshirish juda muhim.

MDHda istisno va cheklovlarsiz to‘laqonli erkin savdo zonasini tezroq shakllantirish bo‘yicha tashabbuslar, ayniqsa, turli hamkorlik turlaridan ko‘ra foydaliroq bo‘lishi mumkinligi alohida e’tiborga loyiqdir.

O‘zbekiston Prezidenti sammitdagi nutqida, shuningdek, MDHda elektr energiyasi va oziq-ovqat mahsulotlarini to‘siqsiz yetkazib berish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish muhimligini aniq ta’kidladi. Darhaqiqat, bunga faqat transport aloqasini mustahkamlash, yo‘lovchi va yuk tashish hajmini oshirish orqali erishish mumkin.

Boshqa ko‘plab tashabbuslar qatorida bepoyon mintaqa aholisi o‘rtasida o‘zaro hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan MDH mamlakatlari madaniyati, san’ati va kinosi haftaligini, yoshlar o‘rtasida futbol turnirini o‘tkazish kabi takliflarni alohida qayd etish kerak.

Nuraziza BORXAN,
Malayziya Xalqaro tadbirkor ayollar assotsiatsiyasi (IWEAM) asoschisi va raisi:

— Avvalo, O‘zbekiston rahbariyati va mamlakatingiz xalqiga do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga qo‘shgan ulkan hissasi uchun Prezident Shavkat Mirziyoyevga MDHning oliy mukofoti topshirilgani munosabati bilan samimiy tabriklarimni izhor etaman.

Darhaqiqat, so‘nggi yillarda O‘zbekiston rahbarining konstruktiv tashqi siyosati tufayli nafaqat Markaziy Osiyoda, balki MDHda ham davlat rahbarlari o‘rtasida mutlaqo qulay siyosiy muhit va ishonch shakllandi. Muntazam siyosiy aloqalar va o‘zaro hamkorlik munosabatlari mustahkamlandi, parlament almashinuvlari yo‘lga qo‘yildi, muloqot va hamkorlik uchun turli platformalar ishga tushirildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu



sammitdagi nutqida biz hozir global geosiyosiy keskinlik kuchayayotgan bir sharoitda og‘ir kunlarni boshdan kechirayotganimizni to‘g‘ri ta’kidladi. Dunyoning turli mintaqalarida keskinlashib borayotgan mojarolarning oqibatlari, istisnosiz, barcha mamlakatlarning barqaror rivojlanishiga o‘ta salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu munosabat bilan O‘zbekistonning sammit chog‘ida import o‘rnini bosuvchi milliy dasturlarni sinxronlashtirish, muqobil savdo va logistika yo‘nalishlarini shakllantirish, oziq-ovqat xavfsizligi sohasida hamkorlikning yangi dasturini ishlab chiqish bo‘yicha bildirgan tashabbuslari, shuningdek, MDHga a’zo davlatlar o‘rtasida elektron tijoratni rivojlantirish juda muhim va dolzarbdir.

Men ham MDH doirasida sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash, shu jumladan, turli yuqori texnologiyali tarmoqlardagi yetakchi kompaniyalar va korporatsiyalar o‘rtasida uzoq muddatli ishbilarmonlik aloqalarini faollashtirish Hamdo‘stlik davlatlarining yanada iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi degan fikrga to‘liq qo‘shilaman.

“Dunyo” AA.









SAMARQAND – YANA BIR YIRIK ANJUMAN MEZBONI

1 — Sammitni uyushtirish va yuqori saviyada o‘tkazish uchun katta tayyorgarlik ko‘rildi, — deydi Samarqand viloyati hokimi o‘rinbosari Rustam Qobilov. — Ushbu yirik anjuman davomida biz Samarqanddagi mavjud turistik salohiyat, investitsiyaviy muhit va jozibadorlikni namoyish etish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Ayni paytda 400 nafarga yaqin ko‘ngillilar ro‘yxatga olingan. BMTning oltita rasmiy tilida tarixiy majmualar haqida ma’lumotlar chop etildi. Umid qilamizki, ushbu xalqaro tadbir qadim va betakror Samarqandga qiziquvchi sayyohlar sonini yanada oshiradi.

Yaqinda mamlakatimiz rahbari turizmni rivojlantirishga qaratilgan yig‘ilishda aynan Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining sammitida mamlakatimizning boshqa viloyatlari ham turistik salohiyatini ko‘rsatishi kerakligini ta’kidlagan edi.

Shundan kelib chiqib, Xalqaro turizm markazida yurtimizning 14 hududi o‘z turistik imkoniyatlarini namoyish qilishadi. Boqiy shahar majmuasi hududida esa milliy an’analarimiz, urf-odatlarimizni aks ettiruvchi kompozitsiya tayyorlanmoqda. Unda milliy taomlarimizni tayyorlashdan tortib, hunarmandlar ko‘rgazmasi, milliy liboslarimiz namoyishi, an’anaviy kuy-qo‘shiqlar, laparlarni o‘z ichiga olgan folklor-etnografik ansambllar chiqishlari tashkillashtiriladi.

Mazkur nufuzli anjuman har ikki yilda bir marta o‘tkaziladi. Bo‘lajak tadbir dasturiga ko‘ra, turli uchrashuvlar, investitsiya hamda ta’lim forumlari, ko‘rgazmalar o‘tkaziladi.

— Bu yil O‘zbekiston ushbu yirik forumning tashkilotchisi bo‘ldi, — deydi UNWTO konferensiya bo‘limining dasturlash bo‘yicha yordamchisi O‘landa Sansegundo Montero. — Mamlakatingiz, ayniqsa, Samarqandda bo‘lganimizdan juda xursandmiz. Bu mening Samarqandga uchinchi tashrifim. Rostini aytsam, men har safar kelganimda, xuddi birinchi marta bo‘lgandek his qilaman. Chunki har doim o‘zgacha yangiliklar va jihatlarni kashf etaman. Yana shuni aytishim mumkinki, forum turizm sohasidagi imkoniyatlarni o‘rganish uchun dunyodagi manfaatdor tomonlar, tizim rahbarlari va investorlarni birlashtiradi.

Shunday qilib, Samarqand yana jahon hamjamiyati e’tiborini tortyapti. Bo‘lajak forum haqida xorijiy nashrlarda ham ko‘p yozilmoqda. Ayni paytda ushbu tadbirni yoritish uchun xorijiy va mahalliy ommaviy axborot vositalarining 250 dan ortiq vakillari akkreditatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadbir doirasida global investitsiya forumi ham o‘tkazilishi rejalashtirilgan bo‘lib, unda turizm sohasidagi xalqaro hamkorlik masalalari keng muhokama qilinadi, bir qator konferensiyalar ham tashkil etiladi.

Umuman olganda, Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining XXV sessiyasi nafaqat Samarqand, balki bugun O‘zbekistonda turizm sohasidagi taraqqiyotning e’tirofi hamda ushbu tizim salohiyatini yanada oshirish sari dadil qadam bo‘ladi.

Abdulaziz YO‘LDOSHEV
(“Xalq so‘zi”).

QADIMIY KENT — BUTUN DUNYO SAYYOHLARI NIGOHIDA

Bugun jahon nigohi qadimiy va muazzam shahar — Samarqandga qaratilgan. O‘tmish va bugunning yorqin ranglarini o‘zida mujassam etgan,dunyo tamadduni taraqqiyotida peshqadam hisoblangan ushbu qadimiy kent olam ahlida hayrat uyg‘otayotganining sababi nimada deb o‘ylaysiz?

Chunki qadimiy shahar ilmu urfon, fan va madaniyat, astronomiya hamda matematika va dunyoning ma’naviyat-ma’rifat markazi sifatida shuhrat qozongan. Bu yerdan yetishib chiqqan fozilu fuzalolar, olimu allomalar Renessans taraqqiyotiga tamal toshi qo‘yishgan.

Shu bois ushbu ko‘hna shaharda xalqaro darajadagi anjumanlar, xususan, joriy yilning 16 — 20-oktabr kunlari Butunjahon turizm tashkilotining Bosh assambleyasi XXV sessiyasi o‘tkazilishi ham tasodif emas.

Yana bir muhim jihat shuki, bu — O‘zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishlardagi muhim yangilanishlarning amaliy natijasi ko‘zga tez tashlanayotgani, barcha sohada ijobiy o‘zgarishlar kuzatilayotgani hamda xalqaro miqyosda Samarqandning mavqei tobora yuksalib borayotgani tufayli, desak, ayni haqiqat.

Keyingi paytlarda mamlakatimizda barcha tarmoqlar qatorida, turizm ham rivojlanmoqda. Bunda, tabiiyki, sohaga doir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar, sayyohlikni rivojlantirish dasturlari, alohida strategiyalar va konsepsiyalar qabul qilinayotgani muhim ahamiyat kasb etayotir.

Xususan, davlatimiz rahbarining 2023-yil 27-iyuldagi “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida mamlakat iqtisodiyotida turizm industriyasi ulushini ko‘paytirish, ushbu yo‘nalishda zarur infratuzilmani rivojlantirish va dunyo bozorida respublikaning turizm salohiyatini targ‘ib qilish orqali mamlakatning yalpi ichki mahsulotida ulushini 5 foizgacha yetkazish, shuningdek, 2026-yil yakuniga qadar 11,6 milliondan ortiq sayyohlarni, shu jumladan, uzoq xorijiy davlatlardan 2 million turistni jalb qilish belgilangan.

Mamlakatimizda xalqaro turizmni rivojlantirishda xorijiy davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar, xususan, turizm sohasida Butunjahon turizm tashkiloti bilan hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston 1993-yildan boshlab ushbu tashkilotning a’zosi hisoblanadi.

Ma’lumot o‘rnida aytish mumkinki, Butunjahon turizm tashkiloti 1975-yil 2-yanvarda kuchga kirgan nizom asosida faoliyat olib boradi. Tashkilotning asosiy maqsadi — turizm rivojlanishiga ko‘maklashish, iqtisodiy taraqqiyot, xalqaro anglashuv, tinchlik, farovonlik, barcha odamlarning irqi, jinsi, tili va dinidan qat’i nazar, inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun tashkilot rivojlanayotgan mamlakatlarning turizm sohasidagi manfaatlariga alohida e’tibor beradi.

Tashkilotning asosiy maqsadlaridan yana biri — a’zo davlatlar iqtisodiyotining sayyohlik sohasini rivojlantirish hamda do‘stlik va madaniy aloqalarni mustahkamlash maqsadida xalqaro turizmga ko‘maklashish, odamlarning dunyo bo‘ylab erkin harakatlanishi yo‘lida har qanday to‘siqlarga qarshi kurashish, turizmning barcha turi bo‘yicha texnik ma’lumotlarni to‘plash hamda tarqatish, ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, mintaqaviy va mintaqalararo miqyosda turizm faoliyatini muvofiqlashtirish, BMT hamda turizmni rivojlantirishdan manfaatdor boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik o‘rnatishga qaratilgandir.

Nufuzli tashkilot doirasidagi davlatlar o‘rtasida turizm sohasida o‘zaro aloqalarni mustahkamlash hamda xalqaro ahamiyatga ega tadbirlarni muntazam tashkil etish ko‘zda tutilgan. Jumladan, joriy yilda Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasi XXV sessiyasini Samarqand shahrida o‘tkazish belgilandi.

Ispaniyaning Madrid shahrida o‘tgan Butunjahon turizm tashkilotining XXIV sessiyasi doirasidagi ovoz berish jarayoni natijalariga ko‘ra, mamlakatimiz Butunjahon turizm tashkilotining navbatdagi sessiyasini o‘tkazishga talabgor davlat, turizm sohasi rivojlangan Portugaliyani ortda qoldirdi.

Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasi sessiyasi ikki yilda bir marta o‘tkaziladigan turistik forum hisoblanadi. Yuqori darajadagi tadbir, ya’ni BMT oilasiga kiruvchi tashkilotlar Bosh assambleyasining turizm sohasi ancha rivojlangan davlatlarda emas, balki O‘zbekistonda o‘tkazilishi mamlakatimiz uchun birinchi tarixiy hodisa, desak, mubolag‘a emas.

Ushbu yirik anjumanga tayyorgarlik, ya’ni “Samarqand — Yangi O‘zbekistonning turizm darvozasi” nomi ostida keng targ‘ibot ishlari olib borilib, unga nufuzli xorijiy ishtirokchilar, xalqaro tashkilotlar hamda yirik xorijiy sayyohlik kompaniyalari vakillari, taniqli ekspertlar jalb etildi. Mehmonlarga mamlakatimiz turizm imkoniyatlarini keng tanishtirish va kelajakda hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha barcha choralar ko‘rilmoqda.

Butunjahon turizm tashkilotining Bosh kotibi Zurab Pololikashvili joriy yilda bir necha bor O‘zbekistonga keldi. Tashriflar davomida rasmiy uchrashuvlar, O‘zbekistondagi turizm va madaniy meros obyektlari, zamonaviy turizm infratuzilmasini rivojlantirish, tashqi hamda ichki turizm ko‘rsatkichlarining o‘sishi, sohada tadbirkorlik bilan shug‘ullanish uchun yaratilgan imkoniyatlar, turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash borasida olib borilayotgan ishlar bilan birgalikda, joriy yilda Butunjahon turizm tashkilotining Bosh assambleyasi XXV sessiyasini Samarqand shahrida o‘tkazish bo‘yicha tayyorgarlik ishlari bilan ham tanishdi. Tadbirga hozirlik yuqori darajada olib borilayotganini e’tirof etdi.

Ta’kidlash joizki, Zurab Pololikashvili joriy yilning 27-28-sentyabr kunlari Ar-Riyod shahrida “Xalqaro turizm kuni — 2023. Turizm va yashil investitsiyalar” xalqaro anjumanda O‘zbekistonda turizm sohasida Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan birga, Butunjahon turizm tashkilotining XXV Bosh assambleyasi sessiyasiga tayyorgarlik jarayonlari haqida ham batafsil ma’lumot berib, barchaning e’tiborini O‘zbekistonga qaratdi.

U o‘z nutqida O‘zbekistonni yangi jozibador turistik yo‘nalish ekanini ta’kidlab, tashkilotga a’zo davlatlar rahbarlarini Samarqandda bo‘lib o‘tadigan Bosh assambleya tadbirlarida faol ishtirok etishga chaqirgan edi.

Sohaga doir xalqaro reytinglarda O‘zbekistonning o‘rnini yaxshilash maqsadida Butunjahon turizm tashkiloti tomonidan turizm jadal rivojlanayotgan mamlakatlar ro‘yxati reytingida 2019-yildagi 4-o‘rindan 2026-yilda 3-o‘ringa erishish, sayyohlar uchun xavfsiz mamlakatlar reytingi (180 mamlakat orasida) da 2020-yildagi 46-o‘rindan 2026-yilda 20 ta eng xavfsiz mamlakat ro‘yxatiga kiritish, “Solo Travel Safety Report” reytingida yolg‘iz sayohat qiluvchi turistlar uchun xavfsiz mamlakat reytingida 2019-yildagi 80-o‘rindan 2026-yilda kamida 50-o‘ringa erishish, “Global Muslim Travel Index” halol turizm reytingida 2020-yildagi 7-o‘rindan 2026-yilda 3-o‘rinni egallash, Sayohat va turizmning raqobatbardoshligi indeksida O‘zbekistonni 2026-yili birinchi 50 talikka kiritish maqsad qilingan.

Bu hali hammasi emas. Samarqand shahrida Butunjahon turizm tashkiloti shafeligida Xalqaro turizm akademiyasi Samarqand kampusi barpo etilmoqda. Akademiya mamlakatimizning turizm sohasidagi salohiyatini yanada yaxshilash hamda bu yo‘nalishda malakali kadrlar tayyorlashda muhim loyiha hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari yaqinda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida bu haqda to‘xtalib, dunyodagi hozirgi murakkab vaziyatda har bir davlat turist jalb qilish uchun barcha imkoniyatini ishga solayotgani, bunday keskin raqobat sharoitiga mos bo‘lib ishlashimiz zarurligini qayd etdi.

Tahlillarga murojaat qiladigan bo‘lsak, joriy yilning o‘tgan 8 oyida yurtimizga xorijdan 4,3 million turist keldi, ulardan 1,4 milliard dollar tushum bo‘ldi. 15 mingta yangi mehmon o‘rni yaratilib, ularning soni 137 mingtaga yetkazildi. 540 ta dam olish hamda ko‘ngilochar maskan barpo etilib, 70 ta turizm marshruti ochildi.

Shuningdek, oltita xususiy aviakompaniya ish boshladi, yigirmadan ortiq yangi samolyotlar olib kelindi, yigirmata xalqaro va oltita ichki qatnov faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Samarqand aeroportida haftalik xalqaro reyslar 46 tadan 85 taga ko‘paytirildi. 1 ming 300 ta zamonaviy



Mansur ESHOV, TDIU prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori (DsC), professor.



Alisher ESHTAYEV, TDIU kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori (DsC), professor.

avtobus xarid qilinib, 38 ta marshrut tashkil etildi. Qo‘shimcha dam olish kunlari va chegirma berilgani hisobiga ichki sayyohlar soni 15 million nafarni tashkil qilib, o‘tgan yildagiga qaraganda ikki barobar o‘sdi.

Savol tug‘iladi, bugun turistlarni yanada kengroq jalb qilish bo‘yicha yangi imkoniyatlar mavjudmi? Bunda, eng avvalo, qo‘shni davlatlardan, Rossiya hamda Xitoydan sayyohlarni jalb qilish uchun katta salohiyat bor.

Masalan, Xitoyning hamma provinsiyalariga borib hududlarimiz turistik salohiyatini keng targ‘ib qilish, Xitoydan Samarqand, Buxoro, Xorazmga, Surxondaryo va Farg‘ona vodiysiga aviaqatnovlarni yo‘lga qo‘yish muhimdir.

Mamlakatimizga uzoq davlatlardan kelayotgan turistlar oqimi 3-4 barobar oshdi. Misol uchun, bu yil Hindistondan, Yaponiyadan, AQSHdan, Italiyadan sayyohlar ko‘paydi. Lekin Malayziya, Indoneziya, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Misr, Qatar hamda Yevropadan turistlarni jalb qilish ishlari sustligicha qolmoqda.

Jahon amaliyotida turizm salohiyatini targ‘ib qilishda kino, serial va hujjatli filmlardan keng foydalaniladi. Shu bois Kinematografiya agentligi milliy tariximiz bo‘yicha kamida ellikta badiiy, hujjatli hamda musiqali asarlar yaratish dasturini ishlab chiqishi lozim. Turizm obyektlarida sanitariya va ozodalikka e’tiborni yanada kuchaytirishga e’tibor qaratildi.

Yana bir muhim masala: ushbu yo‘nalishdagi kadrlar salohiyatini oshirish bilan bog‘liq. Turizm qo‘mitasi “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti bilan birgalikda servis sifati hamda soha xodimlarining malaka va madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha o‘qitish tizimini yaratishga e’tibor qaratishi lozim. Bunda mehmonxona hamda restoran ishi bo‘yicha chetdan mutaxassislar taklif etilib, har bir viloyatda o‘quv kurslari tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qisqacha aytganda, Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasi XXV sessiyasining Samarqand shahrida o‘tkazilishi jahon turizm industriyasining yetakchi vakillari, xorijlik investor hamda ishbilarmonlar, tashkilotga a’zo davlatlarning vakillari, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoq xodimlari va ko‘plab sayyohlarni jalb qiladi.

Bu, o‘z navbatida, jahon iqtisodiyotida shiddatli raqobatbardoshlik kurashi davom etayotgan, qolaversa, globallashuv davrida turizm sohasi yuqori darajada rivojlangan davlatlar tomonidan sohani ravnaq toptirish borasida ishlab chiqilgan keng qamrovli chora-tadbirlar joriy qilinayotgan bir paytda O‘zbekistonning xalqaro miqyosdagi turizm salohiyati va shu orqali turdosh tarmoqlarni yanada rivojlantirish imkonini beradi.

Yangi qonun loyihasi

PARTIYA RO‘YXATIDAN DEPUTATLIKKA NOMZODLAR QANDAY CHIQARILADI?

Mamlakat hayotida siyosiy partiyalarning rolini hamda fuqarolarimizning siyosiy faolligini oshirish demokratik islohotlarning muhim bosqichi sanaladi. Shu bois ularning davlat hokimiyatini shakllantirish jarayonida muayyan g‘oya va maqsadlarni ko‘zlab ishtirok etishlarini ta’minlashda aralash saylov tizimiga o‘tish taklifi anchadan beri ilgari surib kelinmoqda.

Bunda, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga deputatlik o‘rnining 50 foizi majoritar, hozirgidek muayyan okruglar bo‘yicha eng ko‘p ovoz olgan nomzodlar saylanishi, qolgan 50 foizi esa proporsional, ya’ni aniq bir shaxsga emas, balki partiyaga ovoz berish orqali partiyalar tomonidan ko‘rsatilgan ro‘yxat asosida nomzodlar saylanishi nazarda tutiladi.

Bunday saylov tizimida partiyalar muhim o‘rin tutadi. Ular aholi bilan munosabatlarining ta’sirchan va natijador bo‘lishiga harakat qiladi. Partiya o‘z dasturi orqali xalqni ishontira olsagina muayyan ovozga erishadi. Bu esa jamiyatimizda siyosiy plyuralizm bo‘lishini ta’minlaydi.

Proporsional saylov tizimida deputatlikka nomzodlar siyosiy partiyalar tomonidan partiyaviy ro‘yxat asosida taqdim etiladi. Agar xalqaro amaliyotga e’tibor beradigan bo‘lsak, qator xorijiy davlatlar qonunchiligida, shuningdek, Venetsiya komissiyasining “Saylov masalalariga oid lozim darajadagi amaliyot to‘g‘risida”gi kodeksida “partiyaviy ro‘yxat” (party list) tushunchasi qo‘llanilgan.

“O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bilan Saylov kodeksini yangi 401 va 421-moddalari bilan to‘ldirish taklif etilayotir. Ushbu yangi moddalarda siyosiy partiyalar tomonidan shakllantirilgan deputatlikka nomzodlarning partiyaviy ro‘yxatini ro‘yxatga olish va partiya ro‘yxatidan deputatlikka nomzodni chiqarish tartiblari va aniq mexanizmlari belgilab berilmoqda.

Xususan, 401-modda partiya ro‘yxati Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro‘yxatga olinishi, ro‘yxatga olish uchun tegishli hujjatlar ro‘yxatga olish muddati tugashiga kamida yetti kun qolgunga qadar Markaziy saylov komissiyasiga taqdim etilishi, partiya ro‘yxatini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish saylovga o‘ttiz besh kun qolganida tugallanishi, ro‘yxatga olinganlik to‘g‘risidagi xabarning besh kunlik muddatda Markaziy saylov komissiyasi tomonidan e’lon qilinishi, belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan partiya ro‘yxatiga kiritilganlar deputatlikka nomzod maqomini olishi va ularga guvohnoma berilishi to‘g‘risidagi qoidalarni o‘z ichiga olgan.

Aytish joizki, belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan partiya ro‘yxatlarini keng jamoatchilik e’tiboriga e’lon qilish qoidasining belgilanishi, so‘nggi yillarda mamlakatimizda keng joriy etilayotgan ochiqlik va oshkoralik prinsiplariga to‘la mos keladi. Shuningdek, ayrim holatlarni istisno qilgan holda, ro‘yxatga olingan partiya ro‘yxatiga o‘zgartirish kiritish mumkin emasligi qoidasi ham taklif etilayotgan moddada mustahkamlab qo‘yilmoqda. Bu kiritilayotgan qoidani muhim normalardan biri, deb aytish mumkin. Sababi ushbu qoida partiya tomonidan shakllantirilgan nomzodlar ro‘yxatiga tashqaridan ta’sir ko‘rsatishning har qanday imkoniyatlarini va umuman, inson omilini minimallashtirishga hamda korrupsiogen holatlarning oldini olishga qaratilgan.

Sir emaski, amaldagi qonunchiligimizda majoritar saylov tizimi asosidagi deputatlikka nomzodlarni nomzodlik maqomidan mahrum etish hamda uning nomzodlikdan voz kechishiga oid qoidalar belgilangan. Xuddi shunday, proporsional saylov tizimida partiyaviy ro‘yxat asosida berilgan deputatlikka nomzodlarni nomzodlik huquqidan mahrum etish va voz kechish instituti qonun loyihasida belgilab berilmoqda. Ya’ni ushbu munosabatlarni tartibga solish uchun loyiha bilan Saylov kodeksiga kiritilayotgan 421-moddada partiyaviy ro‘yxatga kiritilgan nomzodlarni ushbu ro‘yxatdan chiqarishning aniq 9 ta asosi belgilab berilmoqda.

Mazkur moddada agar deputatlikka nomzod ixtiyoriy ariza berganda, partiya a’zoligidan chiqqanda, nomzodlik maqomidan mahrum etilganda, deputatlik vakolatiga muvofiq kelmaydigan lavozimga o‘tganda, uning boshqa partiya ro‘yxatida ham nomzodi ko‘rsatilganda, boshqa partiyaning a’zosi ekanligi aniqlanganda, vafot etganda, muomalaga layoqatsiz deb topilganda, shuningdek, og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyati uchun sudlanganlik holati mavjud bo‘lganda, uning bir mandatli saylov okrugidan ham nomzodi ko‘rsatilganda partiya ro‘yxatidan chiqarilishi mumkinligi ko‘rsatilmoqda.

Shu o‘rinda agar yuqoridagi asoslarga ko‘ra, belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan partiyaviy ro‘yxatdagi nomzodlar ushbu ro‘yxatdan chiqarilsa yoki proporsional tizim asosida shakllantirilgan deputatlik o‘rni bo‘shab qolsa, ularning o‘rni qanday to‘ldiriladi, degan haqli savol tug‘iladi. Bunday holatlarda loyiha bilan shunday qoida belgilanyaptiki, unga ko‘ra bo‘shab qolgan nomzod yoki deputat o‘rni tegishli partiya ro‘yxatidagi keyingi navbatdagi mandatga ega bo‘lmagan nomzodlar hisobidan ro‘yxat ketma-ketligi asosida to‘ldiriladi.

Umuman olganda, Konstitutsiyaviy qonun loyihasining qabul qilinishi natijasida referendum va saylov to‘g‘risidagi qonunchilik yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtiriladi. Markaziy saylov komissiyasi, hududiy, tuman va shahar saylov komissiyalarining vakolatlari aniqlashtirilib, Qonunchilik palatasi deputatlari korpusini shakllantirishning majoritar-proporsional shakliga asoslangan saylov tizimi joriy etilishining huquqiy asoslari yaratiladi.

Shuhrat SHARAFUTDINOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

21-oktyabr — O‘zbek tili bayrami kuni

TILIMIZ SOFLIGI UNING TARAQQIYOTINI TA’MINLAYDI

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida davlat tilida ish yuritish bo‘yicha maslahatchilarning ikki kunlik respublika seminari bo‘lib o‘tdi. Tadbir avvalida ishtirokchilar ulug‘ mutafakkir bobomiz Mir Alisher Navoiyga ehtirom sifatida uning haykali poyiga gulchambar qo‘yishdi.

Tadbirda Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti rahbari Nodir Xolbo‘tayev seminar ishtirokchilarini 21-oktyabr — O‘zbek tili bayrami bilan tabriklar ekan, mazkur tizim o‘z faoliyatini boshlaganidan buyon amalga oshirilgan ishlar haqida to‘xtaldi.

Shu bilan birga, bu boradagi ishlarni jonlantirish uchun respublika miqyosida seminarlar o‘tkazib turish maqsadga muvofiq ekanini ta’kidladi. Chunki til bo‘yicha ko‘plab masalalar ana shunday tadbirlar asosida o‘z yechimini topishi mumkin. Kelajakda esa bunday seminarlar umumxalq forumi shaklida muntazam davom ettiriladi.

Dunyoda 7 mingga yaqin tillar mavjud bo‘lib, har birining huquqiy maqomi, o‘z o‘rni bor. O‘zbek tili ham xalqimizning bir necha ming yillik qadriyatlari, tafakkuri hamda ilmiy salohiyati mahsulidir. Zero, tilning barhayotligi, uning sofligi faqat va faqat shu tildan foydalanuvchi xalqning tafakkuriga hamda milliy o‘zligiga bog‘liq. Mustabid tuzim davrida millatning madaniyati, san’ati va tilini asrab qolishni ma’rifatparvar ziyolilaru jadid bobolarimiz o‘zlarining eng muqaddas burchi, deb bilganlar. Zero, millatni asrash — tilni asrash, qadriyatlarni, urf-odat, an’analarni asrash demakdir.

O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida hamda xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ona tilimizga, xalqimizning ming yillik tarixi, urf-odatlari va an’analariga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida davlatimiz rahbari tomonidan “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinishi mamlakatimizda davlat tili nufuzini oshirishga qaratilgan yana bir qadam bo‘ldi.

Unga ko‘ra, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati tashkil qilinishi barobarida, uni rivojlantirish hamda mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan yagona davlat siyosati yuritilishi kabi bir qator amaliy ishlar ko‘zda tutilgan.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yillik tantanasini, tom ma’noda, tilimizni rivojlantirishga berilgan alohida e’tibor, deyish mumkin. Chunki mamlakatimizda bu sana O‘zbek tili bayrami kuni sifatida belgilandi. Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi. Bu borada barcha rahbar kadrlarning davlat tili masalalari bo‘yicha maslahatchisi ish boshladi.

Hammamizga ma’lum, davlatimiz rahbari o‘z saylovoldi dasturida davlat tilini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratib, kun tartibiga ko‘pgina masalalarni qo‘ygan edi. Ana shu vazifalarni bajarish ko‘p jihatdan Davlat tilini rivojlantirish departamentiga bog‘liq.

Ona tilimizni asrab-avaylash, chinakam vorislik qilish, til rivoji hamda sofligi yo‘lida xizmat qilish uchun barchamiz birdek mas’ulmiz. Shuni hech birimiz unutmasligimiz lozim. Qaysi mamlakatda milliy til davlat tiliga aylangan bo‘lsa, o‘sha yurt taraqqiy etadi. Xalqning ma’naviy va mafkuraviy qarashlari takomillashadi, rivojlanadi.

Ikki kun davom etgan seminar doirasida bir qator tadbirlar, xususan, “Raqamli Toshkent” geoaxborot tizimi hamda milliynom.uz platformasi taqdimotlari o‘tkazildi. Shu bilan birga, an’anaviy tarzda tashkil etib kelinayotgan “Qadring baland bo‘lsin, ona tilim!” tanlovi bo‘yicha g‘oliblikni qo‘lga kiritgan zukko yigit-qizlarga qimmatbaho sovg‘alar hamda sertifikatlar topshirildi.

Nurulloh OSTONOV
(“Xalq so‘zi”).

Aks sado

KENG QAMROVLI SHERIKLIK ISTIQBOLLARI

Har qanday davlatning tashqi siyosati, boshqa mamlakatlar bilan hamkorligi, avvalo, ichki siyosat, talab va ehtiyoj, qisqa aytganda, milliy manfaatlardan kelib chiqib amalga oshiriladi. Davlatimiz rahbarining Rossiya Federatsiyasiga rasmiy tashrifi ikki davlat o‘rtasidagi ko‘p qirrali, strategik hamkorlik darajasidagi munosabatlarni rivojlantirishga, mazmunan to‘ldirishga xizmat qilishi bilan e’tiborga molik.

Avvalo, ta’kidlash joizki, ikki davlat munosabatlarida savdo-iqtisodiy, neft-kimyo, transport kommunikatsiyalari, qishloq xo‘jaligi, sayyohlik, mehnat migrantlariga munosib sharoitlar yaratish, hududlararo aloqalarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston savdo hajmini oshirish, sarmoyaviy, transport va tranzit sohalarida hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarishdan manfaatdordir. Jumladan, to‘qimachilik va yengil sanoat, meva-sabzavot mahsulotlarimiz uchun Rossiya ulkan bozor va tranzit hudud hisoblanadi. Joriy yil yanvar — iyul oylarida o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 5,5 mlrd. AQSH dollarini tashkil qildi. Shundan eksport ulushi 1,64 mlrd. dollar va eksport tarkibida 624,5 mln. dollarga teng bo‘lgan eng yuqori ulush to‘qimachilik mahsulotlaridan iborat bo‘lgan. Import tarkibida eng yuqori ulush yoqilg‘i-energetika va qora metall mahsulotlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Tashrif davomida yoqilg‘i-energetika sohasida erishilgan kelishuvlar mamlakatimizda aholi va tadbirkorlik subyektlari sonining muntazam o‘sib borayotganligi, iqtisodiyot tarmoqlarini uzluksiz energiya bilan ta’minlashga bo‘lgan o‘suvchan ehtiyojni ta’minlashda ayni muddao bo‘ldi. O‘zbekiston bu sohada ilgari tashqi bozorga, asosan, xomashyo yetkazib bergan bo‘lsa, bugungi kunda tayyor to‘qimachilik va yengil sanoat buyumlari eksportga chiqarilmoqda.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham to‘qimachilikda kalava ipni qayta ishlash darajasini 100 foizga yetkazish hamda yuqori sifatli matoga talabni qondirish uchun 400 ming tonna sun’iy va aralash tola ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, charm-poyabzal sanoatiga 30 dan ortiq nufuzli xorijiy brendlarni jalb qilish hisobiga qo‘shilgan qiymatni 5 barobarga oshirish vazifasi qo‘yilganligi bu sohada ulkan salohiyatga ega ekanligimizni ko‘rsatadi. Ma’lumot o‘rnida aytish kerak, yetarli miqdorda sun’iy va aralash tola ishlab chiqarish bizga Rossiya bozoridagi kuzgi-qishki kiyim-kechak mahsulotlari ulushini oshirishga xizmat qiladi.

Ma’lumki, mamlakatimizda to‘qimachilik va yengil sanoat tarmoqlarining doimiy xalqaro ko‘rgazma-yarmarkalari o‘tkazib kelinadi. Unda dunyoning eng ilg‘or ishlab chiqaruvchilari va mashhur brendlari o‘z mahsulot va xizmatlari bilan ishtirok etishadi. Rossiya va boshqa ko‘plab davlatlarda savdo uylari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Xususan, Prezidentimizning Rossiya Federatsiyasiga 2017-yildagi davlat tashrifi davomida hududlararo hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kelishuvlarga erishilgan. Buning natijasida ikki davlat o‘rtasida hududlararo hamkorlik, iqtisodiy integratsiya, tarmoqlararo kooperatsiya aloqalari keskin faollashdi. Faqat 2022-yilning o‘zida o‘zaro 77 marotaba hududiy delegatsiyalar tashrifi amalga oshirilgani diqqatga sazovordir.

Xulosa o‘rnida aytganda, o‘zaro manfaatli hamkorlik mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish bo‘yicha muhim ko‘rsatkichlar, xususan, sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish, sanoatning drayver sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish, sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmini 45 mlrd. dollarga yetkazish, 2,5 millionta yuqori daromadli ish o‘rni yaratish kabi vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Botir MARDAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

TA’LIMDA SIFAT VA SAMARADORLIK MUHIM

Keyingi yillarda oliy ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasida mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Munosabat

Xususan, oliy o‘quv yurtlari modernizatsiya qilinib, zamonaviy va ilg‘or ta’lim texnologiyalari bilan jihozlandi. Oliy ta’lim qamrov darajasini bosqichma-bosqich oshirish, tizimda sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, o‘quv yuklamalarini maqbullashtirish, sohaga raqamli texnologiyalarni joriy etish, moliyaviy mustaqillikni ta’minlashga erishildi.

Olib borilgan bu kabi ijobiy o‘zgarishlar natijasida yurtimizdagi xalqaro reytinglarda munosib o‘rin egallayotgan oliy o‘quv yurtlari soni ortmoqda.

Birgina Buyuk Britaniyaning nufuzli reyting tashkiloti “Times Higher Education” agentligi tomonidan har yili e’lon qilinadigan “World University Rankings” reytingida mamlakatimizdagi 28 ta oliy o‘quv muassasasi “TOP-1000” talikdan joy olish uchun da’vogarlar ro‘yxatida qayd etilgan bo‘lsa, joriy yilda ushbu ko‘rsatkich 48 taga yetdi.

Albatta, bunday natijalarga erishilishida qabul qilinayotgan manzilli dasturlarning ahamiyati katta. Shu bois jamoamiz bilan Prezidentimiz tomonidan shu yil 11-sentyabr kuni qabul qilingan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon hamda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2023-yilda o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorni mamnuniyat bilan kutib oldik.

Strategiyaning asosiy maqsadi — yangi O‘zbekistonni qurish g‘oyasi asnosida amalga oshirilayotgan, hammamiz ko‘rib, bilib turgan keng ko‘lamli va ayni vaqtda xalqparvar islohotlarni izchil davom ettirish, soha va yo‘nalishlarni yanada rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, jamiyat taraqqiyotida muhim iz qoldirishi, shubhasiz.

Zero, strategiyada oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifati hamda ilmiy tadqiqotlar natijadorligini



oshirish, muassasalarning tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnika ta’minotini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilgani ta’lim taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ta’kidlash joiz, so‘nggi besh yil davomida Andijon mashinasozlik instituti xorijning o‘ttizga yaqin oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik memorandumlarini imzoladi. Bu esa ta’lim tizimida sifat va samaradorlikka erishish, o‘zaro tajriba almashish imkonini beryapti. Ayni chog‘da, ushbu shartnomalar qo‘shma ta’lim dasturlari asosida “ikki diplomli tizim”ni joriy qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Strategiyada “TOP-500”ga kiradigan chet el universitetlari bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo‘shma ta’lim dasturi asosida “ikki diplomli tizim”ga o‘tish kabi masalalarga alohida urg‘u berilgani jamoamizni yanada ko‘proq ishlash va ta’limda innovatsion usullarni joriy qilishga undamoqda.

Qayd etish lozim, maktab bitiruvchilarini oliy ta’limga qamrab olish darajasi 2016-yilda 9 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2020-yilda 25 foizga, 2022-yilda esa 38 foizga yetgan. Strategiyada ayni shu masalaga alohida e’tibor qaratilib, qamrov darajasini 2030-yilga qadar 50 foizga yetkazish ko‘zda tutilmoqda. Bu tabiiyki, o‘quv binolari hamda talabalar turarjoylariga bo‘lgan talab ham ortadi, degani. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ayni shu masalalar ham inobatga olinib, respublika bo‘ylab qo‘shimcha 120 ming o‘rinli o‘quv binolari hamda 150 ming o‘rinli talabalar turarjoylarini qurish rejalashtirilgan.

Umuman olganda, yangi O‘zbekistonni barpo etish, uchinchi Renessans poydevorini qurishda asosiy dasturilamal hisoblanuvchi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi mamlakatimiz rivojining puxta asoslarini o‘zida qamrab olgani bilan e’tiborga molik.

Umid TURDIALIYEV,
Andijon mashinasozlik instituti rektori.

Navoiylik talabalar Madrid politexnika universitetida malaka oshiradi

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti konchilik, kimyo hamda energetika sanoati uchun malakali mutaxassislar tayyorlaydigan nufuzli oliy o‘quv yurtlaridan biri sanaladi. Ilm dargohi reyting bo‘yicha respublikamiz oliy o‘quv yurtlari orasida beshinchi o‘rinni band etib, qariyb 8,5 ming talabani o‘z bag‘riga olgan.

Hamkorlik



— Bu 2000-yil bilan solishtirganda uch baravardan ko‘proqni tashkil etadi, — deydi universitetning o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori Nabijon Abduazizov. — Shu davr ichida ta’lim muassasasining ilmiy salohiyati ham oshib, bugun 300 kishilik pedagogik jamoamizning 29 nafari fan doktori, 121 nafari esa fan nomzodi ilmiy darajasiga ega.

Universitetning 19 gektarlik hududida oltmish foiz maydonni laboratoriyalar egallagan. Bu nazariy bilimlarni amaliy jihatdan mustahkamlash hamda turli ilmiy izlanishlar natijalarini sinovdan o‘tkazishda ham qulayliklar yaratadi. Shuningdek, ilm dargohi talabalari NKMK, “Navoiyazot”, “Navoiy issiqlik elektr stansiyasi” aksiyadorlik jamiyatlari hamda “Navoiyuran” DK kabi yirik ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot o‘tashib, ayni jarayonda ularning aksariyati o‘z ish o‘rniga ham ega bo‘ladi.

— Ta’lim dargohimizning so‘nggi yillarda xalqaro hamkorlik geografiyasi ham tobora kengayib bormoqda, — deydi universitetning xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektori Shuhrat Aliqulov. — Ilgari hamkorligimiz MDH hududidagi oliy o‘quv yurtlari bilan cheklangan bo‘lsa, o‘tgan yildan e’tiboran Yevropa Ittifoqiga kiruvchi bir qator mamlakatlarning konchilik va energetika yo‘nalishidagi oliygohlari bilan mutaxassis kadrlar tayyorlash maqsadida memorandumlar imzolandi. Xususan, o‘tgan yili Ispaniyaning Madrid politexnika universiteti bilan qo‘shma dastur ishlab chiqildi.

Mazkur dastur asosida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining bir guruh olim va tadqiqotchilari Ispaniyada bo‘lishib, Madrid politexnika universiteti huzuridagi konchilik va sanoat maktablari rahbariyati bilan uchrashuvlar o‘tkazdi. Muzokaralar chog‘ida tomonlar o‘rtasida avval imzolangan qo‘shma dasturga muvofiq hamkorlikda kadrlar tayyorlash va stajirovkalar tashkil etish masalalari muhokama qilindi. Unga ko‘ra, 2024-yil yanvar oyida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining 5 nafar tadqiqotchi olim va o‘qituvchisini Madrid politexnika universitetiga stajirovkaga yuborishga kelishib olindi.

— Keyingi bosqichda esa qo‘shma ta’lim dasturlari doirasida bakalavr va magistr talabalarining Ispaniya konchilik va sanoat maktablarida tahsil olishini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ahdlashildi, — deya davom etadi Sh. Aliqulov. — Shuningdek, Madrid politexnika universiteti talabalarini Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti akademik mobilligi dasturi asosida o‘qitish masalalari xususida ham dastlabki kelishuvga erishildi.

Safar davomida NDKTU olimlari Ispaniyaning Oviyedo universitetida ham bo‘ldi. Mazkur oliygoh rahbariyati bilan imzolangan memorandumga asosan universitetlar o‘rtasida o‘zaro aloqalarni yanada jadallashtirish, konchilik, metallurgiya, kimyoviy texnologiya mutaxassisliklari bo‘yicha professor-o‘qituvchilarning stajirovkasini Oviyedo universitetida tashkil etish masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv yakunida Yevropa Ittifoqining “Erazmus+” dasturi asosida O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari talabalari va professor-o‘qituvchilarini Oviyedo universiteti qoshidagi politexnika maktabida hamda uning tadqiqot markazida qisqa muddatli stajirovka o‘tashlarini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha shartnoma imzolashga kelishildi.

Shuningdek, endilikda qo‘shma ta’lim dasturlari doirasida NDKTU talabalari Madrid politexnika universiteti konchilik maktabida tahsil oladi hamda mazkur oliygohning ilmiy-tadqiqot markazida olimlarimiz tajriba almashadi.

Temur ESHBOYEV
(“Xalq so‘zi”).

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2023-yil 15-oktabr

KINO SAN’ATI

TURIZM RIVOJIGA XIZMAT QILADI

1 Xususan, xorijiy kino-ijodkorlar bilan hamkorlikda kinomahsulotlar ishlab chiqarish, xorijiy telekanallar bilan birgalikda ishlash, Vatanimizning tarixiy merosi va tarixiy shaxslari haqida turistik salohiyatimizni targ‘ib qiladigan milliy mahsulotlarni yaratish, Toshkent kino festivali orqali kino turizmini rivojlantirish borasidagi salmoqli ishlar shular jumlasidandir.

Yaqinda kinofestivalga tashrif buyurgan amerikalik kinoaktyor va prodyuser Kevin Speysi qiziq gapni aytdi: “O‘ylashimcha, yurtingizda kino san’atiga bo‘lgan qiziqish juda yuqori. Mamlakat rahbariyati, Prezidenti uni rivojlantirish uchun barcha sa’y-harakatni amalga oshirmoqda. Agarda umidli kadrlar yaratib berilayotgan imkoniyatlardan yuqori darajada foydalanilsa, sohadagi yutuqlaringiz yanada yuksak bo‘ladi”. Bu gapni Gollivud vakili gapiryapti. Demak, ana shu imkoniyatlardan unumli foydalanish, faqat va faqat mehnat qilishimiz, yaxshi kinoasarlarni yaratishimiz kerak!

— Xorijiy mamlakatlar bilan amalga oshirilayotgan qaysi kinoloyihalarni muvaffaqiyatli deb ayta olasiz?

— O‘tgan ikki yil davomida, ya’ni 2021-yildan hozirgi kunga qadar madaniy merosimiz, buyuk ajdodlarimiz, o‘zbek xalqining qudrati haqida hikoya qiluvchi tarixiy mavzularda 5 ta tarixiy badiiy va 36 ta tarixiy hujjatli filmlar suratga olindi. Joriy yilda yana 7 ta badiiy film va 2 ta animatsion loyiha ishlab chiqilmoqda. Kinematografiya agentligi tomonidan Rossiya, Buyuk Britaniya, Turkiya, Italiya, Qirg‘iziston, Tojikiston, Hindiston va boshqa davlatlar bilan hamkorlikda ham bir qator qo‘shma loyihalar bo‘yicha ish ketmoqda. Xususan, Rossiya kinematografiyasi namoyandalari bilan sheriklikda ikkita yirik kinoloyiha — “Parining sovg‘asi” hamda “Quyosh ta’mi” ertak filmlari yaratildi. Dastlab ularni Tunisda va Oltoy o‘lkasida suratga olish rejalashtirilgan edi, biroq muzokaralar natijasida hamkorlarimiz



O‘zbekistonni tanlashdi.

Shuningdek, O‘zbekistonning turizm salohiyatini namoyish etishga qaratilgan yana bir qancha loyihalar ishga tushirildi. Jumladan, Valdis Pelsh bilan hamkorlikdagi “O‘zbekiston. Uchinchi Uyg‘onish davriga nazar” hamda Saida Medvedeva bilan yaratilgan “O‘zbekiston. Yaqin tarix” filmlarini alohida qayd etish zarur.

Italiyalik sheriklar bilan birgalikda “Marko Polo” va “Ibn Sino”, xitoyliklar bilan “Umar Kamoliddin Sayid Shamsiddin” nomli 2 ta hujjatli film loyihasini ishlab chiqdik, Turkiyaning “TRT” telekanali bilan hamkorlikda 5 qismdan iborat “Ziyorat — Oltin yo‘l” loyihasi yaratildi. Bu yil kinofestivalda O‘zbekistonning turizm salohiyati haqida 20 ta filmdan iborat yangi yirik loyihani ishga tushirish bo‘yicha memorandum imzolandi.

Animatsiya yo‘nalishi ham rivojlanmoqda. Joriy yilda Timur Bekmambetov bilan Turizm qo‘mitasi ko‘magida “Xo‘ja Nasriddin” global loyihasi amalga oshirilmoqda. Tasvirga olish guruhi allaqachon O‘zbekistondagi lokatsiyalarni suratga oldi.

O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish bo‘yicha Butunjahon jamiyati bilan hamkorlikda tarixiy hujjatli filmlar suratga olinmoqda. Ularning 30 dan ortig‘i hozirgacha Rossiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Vengriya, Polsha va boshqa O‘zbekistonning madaniy merosi namunalari saqlanayotgan mamlakatlarda suratga olingan.

Darhaqiqat, O‘zbekistonning turistik salohiyati bugun xorijlik kino ustalarining ham e’tiborini tortmoqda. Yaqinda avstraliyalik kinoaktrisa, Enn Demi Gerou bilan suhbatlashib qoldim. U shunday degani yodimda: “Men o‘z uyimdan ancha uzoqda joylashgan, madaniy merosi, qadriyatlari dunyoga mashhur Toshkent va Samarqandga tashrif buyurishni orzu qilganman. Yurtingizda aynan kino bayramida bo‘lish meni xursand etdi. Hakamlar hay’ati a’zosi sifatida ko‘plab kinoasarlarning yaratilganiga guvoh bo‘ldim. Men uchun o‘n beshta o‘zbek filmini ko‘rish imkoniyatining o‘zi quvonarli hodisa! Tadbirning yuksak saviyada o‘tkazilgani katta taassurot qoldirdi. Kinofestivalning asosiy qismi ijodiy hamkorlikni mustahkamlashga bag‘ishlandi” deydi u.

— Xorijiy telekanallar bilan aloqalar kengayib borayotganini ham qayd etdingiz...

— Tomoshabinlarga “Rossiya-Kultura” telekanali bilan hamkorlikda suratga olingan “O‘zbekiston. Sevgi afsonalari”, “Yangi O‘zbekiston: san’at va madaniyat”, “Asrlar qa’ridan maktublar”, “Dasturxon harorati va saxovati”, “O‘zbekiston. Quyoshli madaniyatlar tutashuvi”, “Quyosh ostidagi makon”, 16 qismli “Jonivorlar bilan muloqot: Toshkent hayvonot bog‘i” filmlari yaratildi. Bu filmlar O‘zbekiston va Rossiyaning qator telekanallari orqali tomoshabinlar hukmiga ham havola qilindi.

Hujjatli filmlar ham biz uchun juda muhim. Aytish joizki, Rossiya, Turkiya, Buyuk Britaniya telekanallari bilan bir qator kinoloyihalar yaratilib, efirga uzatildi va O‘zbekiston madaniyati va turizmini ommalashtirishga muhim hissa bo‘lib qo‘shildi. Turli xalqaro telekanallar, jumladan, “Rossiya-24”, “Rossiya-Kultura”, “TRT”, “BBC” va boshqalar bilan aloqalar o‘rnatildi. Ular nafaqat O‘zbekiston yangiliklarini, balki mamlakatimizning sayyohlik salohiyatini ommalashtirishga bag‘ishlangan filmlarni ham muntazam efirga uzatib boradi va biz bilan hamkorlikda loyihalarni amalga oshiradi. Eng so‘nggi loyihalardan biri sifatida Kinematografiya agentligi va “Bi-Bi-Si” bilan hamkorlikda “Usmon Qur’onining qaytishi” hamda “Katta Langar Qur’oni: Faktlar va afsonalar” filmlarini aytish mumkin.

Shu bilan birga, birgina so‘nggi ikki yil davomida “Euronews” va “CNN” telekanallarida O‘zbekistonning sayyohlik va sarmoyaviy salohiyatiga oid mingdan ortiq videoroliklar, reportajlar, maqolalar va boshqa turdagi kontentlar efirga uzatildi. Shuningdek, “CNN” telekanali bilan O‘zbekistonning turizm salohiyatini ommalashtirishga bag‘ishlangan ikki yillik loyiha ishlab chiqildi. Unga ko‘ra, “CNN” bilan hamkorlikda O‘zbekistonning turizm va innovatsion salohiyati haqida kontentlar, maqolalar, videoroliklar, premium-shoular yaratish bo‘yicha kelishib olindi.

— Yaqinda “Ipak yo‘li durdonasi” XV Toshkent xalqaro kino festivali muvaffaqiyatli yakunlandi. Festivallar ham mamlakat turistik salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shunday emasmi?

— Albatta. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qayta tiklangan Toshkent xalqaro kino festivali, mana uch yildirki, yanada takomillashib, o‘zining avvalgi mavqeini tiklamoqda.

Odatda, festivallar turli xalqlar, millatlar o‘rtasida do‘stlik, tinchlik va qardoshlik rishtalarini bog‘lash uchun tashkil etiladi. Toshkent kino festivali ham aynan ijod ahlini, kinomuxlislarni do‘stlik va tinchlik yo‘lida birlashtira olyapti, deb to‘liq ishonch bilan aytish mumkin.

Bu yilgi XV Toshkent xalqaro kino festivalida 5 qit’a va 51 mamlakatdan 300 nafarga yaqin kinoijodkorlar tashrif buyurdi. Festival doirasida milliy va Markaziy Osiyo filmlari tanlovi, “Kino 5 kunda” qisqa metrajli filmlar tanlovi, TURKSOY va Yevropa Ittifoqi kinosi kunlari, ijodiy uchrashuvlar, kinotaqdimotlar, taniqli kino ustalarining mahorat darslari va boshqa ko‘plab tadbirlar yuqori darajada o‘tkazildi.

Toshkent kino festivali kino turizmini rivojlantirishga e’tibor qaratishda o‘ziga xos imkoniyat maydoni bo‘ldi. Bir qator kinostudiyalar rahbarlari bilan yangi qo‘shma loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha memorandumlar imzolandi. Hindiston axborot vaziri va taniqli rejissyor Umesh Mehra tashabbusi bilan “Ali bobo va 40 qaroqchi” filmining, Vengriya bilan “Vamberi” tarixiy filmining, qirg‘iz kino ijodkorlari ishtirokida “Bir vaqtlar Samarqandda” sayyohlik filmining remeykini suratga olish rejalashtirilgan. Kinofestival mehmonlariga Prezidentimiz tashabbusi bilan yaratilgan Samarqand sayyohlik majmuasini — ajoyib filmlarni suratga olish mumkin bo‘lgan manzilni ko‘rsatganimizdan xursandmiz.

Xorijlik mutaxassislar ham kinematografiya rivojiga qaratilayotgan e’tiborga yuqori baho berishdi. Polshalik taniqli rejissyor Kshishtof Zanussi, ikki yildirki, Toshkent kino festivalida ishtirok etadi. U, ayniqsa, yoshlarimizning kinoga qiziqishi yuksak ekanidan mamnunligini bildirdi. Uning bir gapi esimda qolgan: “Tan olib aytish kerakki, agar san’at va madaniyat davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmas ekan, u tanazzulga uchraydi. Bu borada O‘zbekistonda qilinayotgan xayrli ishlar dunyoning eng yetakchi davlatlariga ham ibrat bo‘lsa arziydi”.

Kinofestival doirasida xorijiy hamkorlar bilan birgalikda qarorgohi Toshkentda joylashgan MDH mamlakatlari kinostudiyasi ittifoqi tuzildi. Yaqinda turkiy tilli davlatlar kino tashkilotlari rahbarlari Ozarbayjonning Boku shahrida yig‘ilib, TURKSOY mamlakatlari kinostudiyalari uyushmasini tashkil etish masalasini muhokama qildik.

Bularning barchasi nafaqat kino mutaxassislarining keng ommasini o‘ziga jalb etishi, balki turizmning rivojlanishiga ham xizmat qilishi, shubhasiz.

Rustam JABBOROV
(“Xalq so‘zi”) suhbatlashdi.

Bog`dorchilik

SARCHASHMA OLMALARI XORIJDA HAM XARIDORGIR

Sarchashma mahallasi Dehqonobod tumanining olis va chekka aholi yashash manzillaridan biri hisoblanadi. Purviqor tog‘lar bag‘rida joylashgan bu hududning musaffo havosi, zilol suvi, unumdor tuprog‘i, ayniqsa, meva-cheva yetishtirish uchun juda qulay.



Mehnatkash, intiluvchan qishloq odamlari esa bu imkoniyatdan unumli foydalanmoqda. Aholi tomorqasida ham, dehqon va fermer xo‘jaliklarining yer maydonlarida ham shovullagan bog‘larni uchratasiz.

— Odamlarimiz, ayniqsa, olma yetishtirishning hadisini olgan, — deydi Sarchashma mahallasidagi hokim yordamchisi Sayriddin Ko‘chimov. — Bu mahallada faqat olmaning o‘zidan 300 — 400 million so‘m daromad topayotgan oilalar ko‘p.

Shu yerlik tajribali bog‘bon Qurbonnazar Norqobilov ham mahalla ahli olmadan yaxshi daromad topayotgani va shuning ortidan turmushi farovon ekanini ta’kidladi.

— Bog‘dorchilikda hikmat ko‘p, — deydi u. — O‘zim ham qariyb 50 yildan buyon olma yetishtirish bilan shug‘ullanaman. Hozir o‘g‘limning nomiga bog‘dorchilik fermer xo‘jaligini tashkil qilganmiz. 350 tup olma daraxtimiz bor. O‘tgan yili 30 tonnadan oshiq hosil olgandik. Bu yilgi mo‘ljal yanada cho‘ng.

Endi hisob-kitob qilib ko‘ring, ayni vaqtda bir kilo sara olmaning o‘rtacha ulgurji bahosi 10 ming so‘mdan kam emas. Bu — 30 tonna olma 300 million so‘m mablag‘, degani. Albatta, bu fermer uchun kam daromad emas. Bog‘dorchilikning mehnatiga, mashaqqatiga chidagan odam baraka topadi.

Bog‘bonning aytishicha, mahsulotni sotishda umuman muammo yo‘q. Har yili hosil yig‘imi vaqtida bog‘dorchilik mahsulotlari biznesi bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlarning o‘zlari kelib, ulgurji sotib oladi. So‘ng Sarchashma olmalari mamlakatimizning barcha hududlari hamda xorij bozorlariga yetkazib beriladi.

Jahongir BOYMURODOV
(“Xalq so‘zi”).

HAMJIHATLIK VA DO‘STLIK MUSTAHKAM QAROR TOPGAN MANZIL



Rossiya Federatsiyasining Astraxan shahrida VIII Kaspiy mediaforumi bo‘lib o‘tdi. Unda Kaspiybo‘yi davlatlari delegatsiyalari qatorida o‘zbekistonlik bir guruh jurnalistlar ham ishtirok etdi. Anjumanda mintaqa davlatlari o‘rtasida hamjihatlik va hamkorlikni mustahkamlashda ommaviy axborot vositalarining o‘rni muhimligiga oid bir qator mavzular yuzasidan fikr almashildi.

Biz va jahon

Shuningdek, mediata’lim va umuman, yuqori professional jurnalist kadrlar tayyorlash borasidagi muammolar, tajriba, takliflar bo‘yicha turli mamlakatlar vakillarining ma’ruzalari tinglandi. Forumda Jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi direktori Gulnora Bobojonova yurtimizda bu borada amalga oshirilgan va jurnalistika oliy ta’limini yanada rivojlantirish bo‘yicha bajarilayotgan keng ko‘lamli ishlar haqida fikr yuritdi. Keyingi yillarda mediakadrlar tayyorlashga ixtisoslashtirilgan maxsus oliy ta’lim muassasasi tashkil etilgani, bir necha markaziy va mahalliy oliy o‘quv yurtlarida jurnalistika fakultetlari ochilgani haqidagi ma’lumotlar ishtirokchilar e’tiborini tortdi. Ayni chog‘da, jurnalistlarni qayta tayyorlash bo‘yicha O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlar ham ko‘pchilikda qiziqish uyg‘otdi.

Mediaforum doirasida jurnalistlar Astraxan shahri va viloyatining iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-ma’rifiy hayoti, tarixiy yodgorliklari va tabiati bilan yaqindan tanishdilar.

Astraxanga oid ilk tarixiy qaydlarga ko‘ra, shahar XIII asrning yarmida paydo bo‘lgani taxmin qilinadi. Ya’ni Hoji Tarxon (Astraxanning qadimgi nomi) haqidagi ilk yozma ma’lumot 1333-yilda O‘zbekxon bilan shu yerga kelgan arab sayyohi Ibn Batuttaga taalluqli.

Astraxanning savdo yo‘llari tutashgan manzilda joylashgani uning Oltin O‘rdaning tijorat markaziga aylanishida muhim omil bo‘lgan. Natijada XIII — XIV asrlarda “Sharq — G‘arb” tranzit tijorat va karvon yo‘lining yirik bo‘g‘ini sifatida rivojlangan.

Davrlar osha shahar va viloyat hududida turli millat va elat vakillari qo‘nim topgan. Shu bois Astraxan turli millatlar hamjihatligi va do‘stligi mustahkam qaror topgan manzil sifatida ham e’tirof etiladi. Shahar aholisi qariyb 469 ming nafarni tashkil qilsa, millat va elatlar soni 200 dan oshadi.

Hududda 170 ta milliy madaniyat jamiyati faoliyat yuritmoqda. Ana shulardan biri Astraxan — O‘zbekiston o‘zbek madaniyatini saqlash va rivojlantirish hududiy jamoatchilik tashkilotidir. Mazkur tashkilot sa’y-harakati va Astraxan viloyati gubernatorligining qo‘llab-quvvatlovi bilan Navro‘z bayrami hamda “Navoiyxonlik” kechasi har yili keng miqyosda o‘tkazib kelinadi. E’tiborlisi, bunday tadbirlarda, ayniqsa, Navro‘z shodiyonasida barcha millat vakillari faol ishtirok etadi. Sumalak, ko‘ksomsa va boshqa milliy bahoriy taomlarimizdan iborat dasturxonlar yoziladi. Astraxanda har yili bo‘lib o‘tadigan ushbu bayramlar forum minbarida ham e’tirof etildi.

Volga Venetsiyasi

Astraxan shahriga Janubiy yoki Volga Venetsiyasi degan ta’rif berilgan. Bu bejiz emas. Negaki, u Volga deltasining yuqorisidagi 11 ta orolda joylashgan bo‘lib, hududni daryoning asosiy va yagona o‘zanidan ajralib, Kaspiy tomon oqadigan ko‘plab irmoqlar kesib o‘tadi. Bolda, Sarev, Kizan kabilar shular jumlasidandir.

Shu o‘rinda aytish lozimki, bahaybat Volga daryosi ayni Astraxan viloyatida son-sanoqsiz daryo va irmoqlarga bo‘linib ketadi va juda keng maydonda delta hosil qilib, Kasbiy dengiziga quyiladi. Ana shunday ajralgan daryolardan ayrimlari borki, ularning kattaligi va sersuvligini ko‘rib, yaxlit Volga daryosining qanchalar ulkan ekanligini tasavvur qilish qiyin emas. Shaharning ko‘plab suv yo‘llari o‘tgan hududda joylashganligi esa unga ajib bir chiroy baxsh etgan.

Ayniqsa, “Naberejnaya” xiyoboni juda ko‘rkam va hamisha gavjum. Astraxan Kremli tarixiy-arxitektura majmuasi esa sayyohlar uchun eng jozibador maskan.

Bu yerda turli davrlarga oid me’moriy obidalar ko‘p. Shu bilan birga, zamonaviy inshootlar shaharning yil sayin rivojlanib borayotgan kentlaridan biri ekanligidan dalolat beradi.

Masalan, Kaspiy mediaforumi bo‘lib o‘tgan Astraxan opera va balet teatri juda mahobatli. Me’moriy yechimida Sharq va G‘arb binokorlik unsurlari uyg‘unlashgan. Ushbu san’at koshonasining qurilganiga hali ko‘p vaqt bo‘lmagan. Lekin ichki va tashqi ko‘rinishi tarixiydek taassurot qoldiradi. Dizayni ham g‘aroyib. Teatrning katta hamda bir necha kichik zallari, 3 ta restorani, hatto mo‘jaz mehmonxonasi ham bor. U jami 54 ming kvadrat metr maydonga ega.

Xo‘sh, mana shunday salobatli va mahobatli teatrga tomoshabinlarning kirish ko‘rsatkichi qanday? Bu savolga teatrning mas’ul xodimlaridan biri har namoyishimizda zal ham, balkon ham liq to‘la bo‘ladi, dedi. Demak, bu — 1200 tomoshabin o‘rni to‘liq band, degani. Yana bir e’tiborli dalil shuki, mazkur teatrga shu vaqtgacha 4 ta davlat Prezidenti tashrif buyurganidir.

Baliqdan keyin tarvuz...

Xalqaro VIII Kaspiy mediaforumi doirasida o‘zbekistonlik jurnalistlarga mezbonlik qilgan Kamizyak tumani ma’muriy tuzilmasi tomonidan Astraxan viloyatining ushbu tumani va Volga daryosi bo‘ylab sayohat tashkil qilindi. Tuman deputatlar Kengashi raisi Oleg Krivanchikov Astraxan zaminida, asosan, sholi, poliz va sabzavot ekinlari o‘stirilishini hikoya qilar ekan, mashhur Astraxan tarvuzini yetishtirish usuli haqida ham gapirib berdi.

Uning aytishicha, Astraxanda umuman sug‘orilmay, mineral o‘g‘itlar bilan oziqlantirilmagan holda tarvuz va barcha poliz ekinlaridan mo‘l hosil olinar ekan. Xo‘sh, qanday qilib?

Gap shundaki, poliz ekinlari, asosan, 3-4 yil davomida baliq yetishtirilib, so‘ngra bo‘shatiladigan havzalar o‘rnida o‘stiriladi. Bunday yerlarga ekilgan o‘simliklar uchun tuproq tarkibida nam ham, ozuqalar ham yetarli darajada bo‘lar ekan. Ya’ni, zarur o‘g‘itlar baliq boqish jarayonida hosil bo‘ladi. Ayni tabiiy sharoit tufayli hosil tannarxi arzon bo‘lishi barobarida ekologik toza mahsulot yetishtirish ham ta’minlanadi.

Astraxan tarvuzlari juda totli. Sug‘orilmagan bo‘lsa-da, sersuv, sharbatli, quchoqqa sig‘maydigan darajada katta. Lekin qovuni kichik, ko‘rinishi, ta’mi handalak misoli. Quvonarlisi, mezbonlar qovun bobida O‘zbekistonning mashhur Mirzacho‘l qovuniga teng keladigani yo‘q, deya e’tirof etishdi. Shu bilan birga, yurtimizda yetishtiriladigan mevalar, xususan, qovunlarimiz Astraxan bozorlarida juda xaridorgir va sevib iste’mol qilinadigan ne’matlar ekanligi aytildi.

“Nilufar gullar dalasi”

Volga daryosi deltasi — uning Kaspiy dengiziga quyilish ostonasida “Lotosovыye polya”, ya’ni “Nilufar gullar dalasi” deb nomlanadigan tabiat mo‘jizasi bor. Ta’bir joiz bo‘lsa, bu betakror gulshanni Astraxan marvaridi deyish mumkin. Negaki, bu tabiiy gulzorlar butun dunyoga mashhur va uning umumiy maydoni bir necha yuz gektarlik bo‘lib, dunyodagi eng katta nilufar gullar maskani hisoblanadi. Gullash mavsumida atay ushbu ajoyib hodisani ko‘rish uchun turli mamlakatlardan ko‘plab sayyohlar keladi.

Yer yuzidagi eng yirik nilufar gullar, ya’ni bo‘yi ikki metrgacha yetadigan mazkur daryo gulzori iyul oyidan sentyabr oyining boshigacha qiyg‘os gullaydi. Kunning birinchi yarmidagi ekskursiya barcha go‘zallikni ko‘rishga imkon beradi, quyosh nurida gullar to‘liq ochiladi. Kechqurun esa yopiladi hamda havoda xushbo‘y hid va ta’riflab bo‘lmaydigan ajib bir xotirjamlik muhitini qoldiradi. Sentabrning oxirgi o‘n kunligida borgan bo‘lsak-da, harqalay, ochilib turgan nilufarlarni ko‘rdik.

Volga mo‘jizalaridan yana biri, albatta, bu — uning noyob baliqlaridir. Xususan, bakra turiga mansub oq bakra balig‘ini Astraxanning baliqchilik sohasidagi brendi deyish mumkin. Biz tushgan kema kapitani daryodan 400 kilogramm vaznli ana shu turdagi baliq ovlaganini maroq bilan hikoya qilib berdi. Ammo bu oq bakra og‘irligining eng yuqori ko‘rsatkichi emas. Bunga Astraxandagi muzeylardan birida eksponat sifatida qo‘yilgan 1200 kilogrammlik oq bakra balig‘ining ustuxoni dalolatdir. Hozirda oq bakra va bakra turidagi boshqa baliqlar, asosan, maxsus baliqchilik korxonalarida yetishtiriladi.

Xullas, forumda va uning doirasida Astraxan shahri hamda viloyati bilan tanishuv, uchrashuvlar va ijodiy muloqotlarda davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, hamjihatlikning yanada mustahkamlanishidagi media sohasining muhim o‘rni e’tirof etildi. Bu, o‘z navbatida, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi aloqalar rivojiga muhim hissa bo‘lib qo‘shilishi, shubhasiz.

Ahmadali SHERNAZAROV
(“Xalq so‘zi”).
Toshkent — Moskva — Astraxan — Moskva — Toshkent

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1041.32 699 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir B. Madyorov.
Musahhih Sh. Mashrabboev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 23.55 Topshirildi — 01.10 1 2 3 4 5 6